

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Х.А.Абдурасулов	
Экономическая история Туркестана в "Большой игре" Питера Хопкирка	338
Sh.S.Shodiyeva	
Afg'oniston matbuotining Buxoro amirligi hududiga tarqalishi tarixiga doir.....	343
Sh.M.Abdusatorov	
Gastroturizm sohasini rivojlantirishning ba'zi nazariy masalalari.....	348
O.B.Nizomiddinov	
XX asrning 20-yillarida Farg'ona viloyatida ta'lim tizimi (Farg'ona viloyat davlat arxividagi hujjatlar misolida)	353
G'.A.Raxmonov	
Farg'ona vodiysida suv xavfsizligi borasidagi yondashuvlar	358
M.Y.Umarova	
Temuriy Malika Gavharshodbegim tug'ilgan oila va uning Amir Temur davridagi hayoti	361
S.B.Yuldashev	
The Faragina – a regular military structure in the Abbasid's army	366
X.X.Mamajonov	
Turk tarixshunosligida Amir Temur tarixining o'rganilishi va rivojlanish bosqichlari.....	373

ADABIYOTSHUNOSLIK

D.Sh.Kodirova	
O'zbek tili konchilik terminlarining terminografiya talablari asosida terminologik lug'atlarga kiritilishi	377
N.T.Zaylobova	
Muloqot xulqining oliy ko'rinishi	384
D.O.Xamidova	
Luqmon Bo'rixonning "jaziramadagi odamlar" romanida ruhiyat	389
A.N.Nasirov	
Xarakter evolyutsiyasining ruhiy-psixologik asosi	396

TILSHUNOSLIK

Ф.Ш.Алимов, Р.А.Фахрутдинова	
Лингвистические факторы формирования письменной речи в условиях цифровизации.....	402
Талантбек кызы Альбина, К.С.Шакиров, Э.И.Ибрагимова	
Формирование информационно-коммуникационные готовности у педагогов дошкольного образования в условиях непрерывного профессионального образования	408
O.Q.Sobirov, Sh.I.Shokirov	
Ingliz tilida qurilish terminlarini semantik xususiyatlari.....	417
D.A.Ganiyeva	
To'liqsiz va bog'lama fe'llarda sinkretizm va polifunksionallik.....	422
A.M.Mamarasulov	
Leksik sistemaga onomasiologik yondashuv.....	426
N.Xamidov	
Turli tizimli tillardagi antroponimlarda erkalash-kichraytirish ma'nolarining ifodalanishi	432
С.Э.Саидова	
Мулоҳизаҳо оиди лингвистикаи ареалӣ дар мисоли шеваҳои аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	437
Г.М.Мансурова	
Проблемы понимания на слух у студентов технических вузов	441
Ф.А.Темирова	
Методологический анализ подходов к составлению идиоматического словаря на примере HSG: сравнение, особенности и рекомендации	445
Ш.М.Султонова, Г.Ф.Нишонова	
Теоретические предпосылки изучения антропонимов в переводческом аспекте.....	449

**LUQMON BO'RIXONNING "JAZIRAMADAGI ODAMLAR" ROMANIDA RUHIYAT
ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СОБЫТИЙ В РОМАНЕ «ЛЮДИ В ЖАРЕ» ЛУКМОНА БУРИХАНА
INTERPRETATION OF EVENTS IN THE NOVEL "PEOPLE IN THE HEAT" BY LUKMON
BORIKHAN**

Xamidova Dilorom Olimjonovna¹

¹Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada "Jaziramadagi odamlar" romanida inson qalbidagi iztiroblar, kechinmalar, muhit va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlar talqiniga e'tibor qaratilgan. Asardagi qahramonlarning iztirobli kechinmalari asosida inson va tabiat, shaxs va jamiyat ziddiyatlari haqqoniy yoritilganligi ochib berilgan bo'lib, bu talqinlar nazariy talqin qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается трактовка человеческих страданий, переживаний, конфликтов между средой и личностью в романе «Люди в жару». На основе болезненных переживаний героев произведения выяснилось, что конфликт между человеком и природой, личностью и обществом был правдиво освещен, а эти интерпретации теоретически осмыслены.

Abstract

This article analyzes the interpretation of human suffering, experiences, conflicts between the environment and the individual in the novel "People in the Heat." Based on the painful experiences of the heroes of the novel, it turned out that the conflict between human and nature, the individual and society was truthfully illuminated, and these interpretations were theoretically comprehended.

Kalit so'zlar: ruhiyat, psixologizm, kechinma, talqin, tasvir, mahorat.

Ключевые слова: психика, психологизм, опыт, интерпретация, образ, мастерство.

Key words: psyche, psychologism, experience, interpretation, image, skill.

KIRISH

Keyingi yillar o'zbek romanchiligi jahon adabiyotidagi mavjud yetakchi tamoyillarni o'zida mujassamlashtirgani bilan alohida ajralib turadi. XX asr so'nggi choragidagi badiiy adabiyotdagi o'ziga xos tasvir usulini, ya'ni hayot voqeeligiga jiddiy yondashish, inson ruhiyatining murakkab qirralarini badiiy talqin etish an'anasini kuzatamiz. Bu davr romanchiligidagi badiiy uslubdagi o'zgarishlar ijodkorning o'ziga xos qirralarini ham namoyon etdi. Adabiyot inson psixologiyasini uning ruhiy, ma'naviy olamini aks ettirish jarayonida turfa-xil ohanglarni shakllantirdi.

Darhaqiqat, keyingi davr romanchiligida tariximizni, hayotni turfa-xil qirralarini aks ettirish an'anasi yuksak darajada shakllandi. Badiiy asarni o'rganish asosida muayyan millat adabiyoti, tarixi madaniyati haqida chuqur tasavvur paydo bo'ladi. Insonni haqiqat va adolat hissi ruhida tarbiyalashda ham badiiy adabiyotning roli beqiyos ekanligi anglashilmoqda. So'z san'ati badiiy adabiyotning barcha janrlaridan olam-u odamni tadqiq etishdagi teranlik, estetik omillarning takomillashuvi o'z ifodasini topmoqda. Adabiyotshunos A.Rasulov roman janri taraqqiyotidagi o'zgarishlar haqida so'z yuritib: "Roman badiiy adabiyotning hamisha navqiron, izlanishdagi janri. Jahon adabiyotida u drama, doston singari tayanch janrlardan ancha keyin paydo bo'ldi. O'zbek romanchiligining yanada yangi, salkam bir asrlik tarixi bor, xolos" [1, 56-bet].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Bir asrlik tarixga ega bo'lgan o'zbek romanchiligining poetik tadqiqidagi o'ziga xos o'zgarishlarini alohida qayd etish lozim. Abdulla Qodiriy asos solgan o'zbek romanchiligining ilk kurtaklari juda uzoq tarixga borib bog'lanadi. Sof roman janridagi asarlar vujudga kelganiga bir asrlik tarix qayd etilmoqda. Buning o'ziga xos asoslari mavjud [2, 9-bet].

Shu o'rinda faylasuf yozuvchi Alber Kamyuning fikri aynan asoslidir: "San'at mening uchun – yolg'iz ijodkorning ermagi emas. U men uchun, umumiy azob uqubatlar va quvonchlarning qamrovli manzarasini yaratish orqali iloji boricha ko'proq odamlarga tasir etish usulidir. San'at ijodkor uchun o'z qobig'iga o'ralashib qolishga yo'l qo'ymaydi, uni eng oddiy va eng umumiy

haqiqatga bo'ysundiradi... Shuning uchun haqiqiy san'atkorlar hech narsani etibordan soqit qilmaydilar, ular hukm chiqarishni emas, tushunishni o'z burchlari deb biladilar" [2,168-bet].

Luqmon Bo'rixonning badiiy izlanishlarida esa Kamyuning fikri yaqqol ko'zga tashlanadi. Adib mumkin qadar asar ichki struktural jozibasini kinoyaviy–parodikis usul orqali ifodalashi badiiy mahorat bobidagi yutuqlari, deb tushunamiz. Yozuvchi asarda kompozitsion jihatdan yuzakilik, ayniqsa, matnlararo bayonchilikka berilib ketganida haqiqiy badiiy asar emas, publitsistik talqin etakchilik qilib oladi. Publitsistik ruhning etakchilik qilishi – roman jozibasiga jiddiy putur yetkazadi. Ammo adibning bu romanida insonni anglash, talqin qilish juda izchillik bilan talqin etilgan. Badiiy asardagi jonli lavhalar, inson botinidagi mislsiz iztiroblar, dolg'ali hadiksirashlar, o'zaro ziddiyatlar, tasavvurga sig'mas darajadagi ikkilanishlar tasvirlansa, o'quvchi oldidagi-burchni sitqidildan ado etgan bo'ladi yozuvchi.

A.Nasirovning maqolalarida insonni anglash, uning badiiy ifodasidagi talqinlar, xarakter, ruhiyat, muhit birliklarining badiiy ifodasini talqin etishdagi ijodkor mahorati haqida so'z yuritiladi. Bu o'rinlarda, Luqmon Bo'rixonning muhit va xarakter ta'sirini ham nazariy tushunchalarda tahlil yondoshuvlari ma'lum darajada asos bo'ldi. Inson kechinmalari, ruhiy istiroblari bejizga yuzaga chiqmasligi, uning sabablari, muhitning ta'sir doirasi, atrofdagi odamlarning ruhiy-ma'naviy qiyofasida namoyo bo'lish kabi holatlarga tanlil yondoshilgan va munosabat bildirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hayotning o'zidek, tasirli, va ohangdor etib tasvirlashga yillar mobaynida – eksperimentlar orqali erishiladi. Bunday hol L.Bo'rixonning adabiy talqinlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'la olgan: "Fayzulla aka xonadoni kelinmas, huzuri jon olgan ekan! Otam ikki hamrohi bilan olis shaharga otlangan o'sha kundani beri tez orada qishlog'imizda yuz-ko'zlari xo'b bo'yab-bejalgan, injiq fel, ishyoqmas bir tannoz paydo bo'lishini bashorat qilib yurgan mish-mishchilarning hafsalasi pir bo'ldi. To'ying ertasiyoq qo'shninikiga kirib-chiqib yurgan onamning og'zidan bol tomar edi.

– Ana keli-nu, mana kelin... – dedi u goh otamga, goh «elakka» chiqqan xotinlarga. Xus-nu jamoliga boqib bir xuzur qilsang, odob-axloqini, shirin so'zligini ko'rib ikki karra huzur topasan... yugurib-elib ro'zg'orga xizmat qilishini aytmay qo'ya qolay... Tayin gapki, matonatli mish-mishchilar onamning tarif-tavsiflariga shubha bilan qarashar, "qo'shnisining sharmandali holini yashirib, maqtaydi-da", degan o'y-xayollarga borishar edi. Ammo Fayzulla aka va Xosiyat xolaning topib olgan tashlandiq lotareyalariga, nogoh qimmatli yutuq chiqqandek ko'cha-ko'yda kerilib, mamnun tabassumlarga ko'milib yurishlari ham onamning maqtovlari chippa-chin ekanidan darak berar edi" [4, 55-56-betlar].

Adib talqinlaridagi mantiqiy izchillik, insonni ilg'ash mumkinligini, romandagi har bir personaj hikoyachi Samad tafakkurida g'oyat aniqlik kasb eta borishini his eta boshlaydi. Aslida badiiy tizim shaklu shamoyili muallif badiiy estetik tafakkuri zamirida yuzaga chiqadi. Negaki, muallif hayotning mohiyatini inson ruhiyatidagi evrilishlar natijasida anglashga initiladi.

Luqmon Bo'rixon tafakkur tarzi, shaxs iztirobi va armonini to'la idrok eta olganligida ko'rinadi. Shu sababli, «Jaziramadagi odamlar» romani mavjud andozalarning yangi davriga o'tgan paytda ham asoratlari qolib, mustaqil yashashga urinayotgan inson botinida kechayotgan shaxs fojisi Lolaxon timsolida maromiga etadi. Samad romanda barcha voqealarni kuzatuvchi, sharhlovchi, tafsilotlarni izchillik bilan to'ldirib, xarakter evolyutsisiga ham o'z tasirini, tafakkuri nuqtadan yondashishga bo'lgan harakati yaqqol ko'zga tashlanadi. Asarda nimaiki sodir bo'lsin, yoki bo'lmasin Samad aralashuvizis ro'yobga chiqmaydi.

Muallif bolalarcha beg'ubor bo'lib, bosh qahramon Lola yangasi yonida yurib, unga bo'lgan sof muhabbati – insoniy mehrini har bir xatti-harakatida to'la namoyon etib turadi: "Ilk bahor yomg'iri ezib yoqqan, O'roq Lolaxonga bir so'lg'in o't-o'lan taqdim etgan o'sha kun o'z-o'zimcha qasamlar ichdim: «Endi hech gaplashmayman, uyiga ham bormayman». Biroq oradan ikki-uch kun o'tar-o'tmas ne sababdandir onamning qoshiga kelgan Lolaxon kelinni ko'rdimu butun araz, g'ashliklarim shamol quvgan bulutdek tarqadi-ketdi. –Ha, qochoq, –dedi u bilagimdan mahkam ushlab. – Sog'inib ketdigu, nega bormaysiz biznikiga, a? Yo, endi yanga qilmaysizmi? Men Lolaxon kelinning o'pka-gina bilan suzilgan ko'zlariga tikilib, qahrabodek qorachiqlarida o'z aksimni ko'rdimu quvonib, iljaydim. – Kelinjon, – dedi bizni nimtabassum bilan kuzatib turgan onam. – Ko'p erkalatmang buni, taltayib ketadi. Lolaxon yangam onam tomon yolg'ondakam bir o'qrayib qo'yib, so'ng menga jilmayganicha yuzlandi: – Erkalayman, Samadjon meni qaroqchilardan qo'riqlaydi,

ADABIYOTSHUNOSLIK

Baxtimga qarashadi, ishlarimga yordam beradi... Shu-shu hamishagidek bir oyog'im uydayu bir oyog'im ularnikida bo'lib qoldi. Yana Lolaxon yangamning kulgularidan, erkalashlaridan o'z boshimga mastu mustag'riq yurar edim" [4, 126-127-betlar].

Keltirilgan matnda Lolaga bo'lgan alohida mehru muhabbati, avvalgidek o'z iziga tushishini real ifoda etadi. Muallif tushunchani moddiylashtirish yordamida hissiy kechinma aniqligi-yaxlitligiga erishadi, mushohadaning yangi ma'no qirralariga alohida mantiqiy urg'u beradi. Tahlilda ijodiy xarakter mantiqi ruhiy kechinma poetik yaxlitligini iste'fodalaydi. Unda shartli nisbat, axborot izchilligi – kommunikatsiya (o'quvchi bilan qahramon muloqoti) hamda falsafiy hukm-xulosa estetikasi jiddiy raqobatga kirishadi. Boshqacha aytganda, yozuvchi badiiy asar komponentlarida roman mohiyatini izchillik bilan bosqima-bosqich tasvirlab boradi. Bu hol kinoyaviy-parodik usulning – janr tabiatida qay darajada asoslanganligini, hamda real aniqlikka erishilishini, personaj ruhiyatini ro'y-rost ochishini taqazo etadi. Talqin rang-barang va obrazli bo'lsa, asar poetikasi shunchalik jozibadorlik kasb etadi.

Romanda badiiy tasvir shartli ravishda ikki makonda ro'y beradi: shahar va qishloqda. Ularning bir-biridan o'xshash va farqli jihatlari, ko'nikish, sabrsizlik, bardoshlilik tuyo'ularining bir inson hayotida – turlicha bo'lish hollariga ham muallif mantiqiy urg'u beradi. Roman tuguni shaharlik kelin – Lolaning kelin bo'lib kelishi bilan boshlanadi. Lolaning qishloq muhitiga, hayotiga moslashib ketishi mumkin qadar qiyin kechishini o'z ko'zlari bilan kuzatib turgan 41-sovxo odamlari, bora-bora unga bo'lgan munosabatini ham o'zgartirishga majbur bo'ladi. Yozuvchi bu paytda ham hodisotni ichdan turib baholashga shoshilmaydi. Faqatgina – oliy hakam vaqt, jarayoni izmiga topshirib qo'yadi.

Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev qayd qilganidek: "Yozuvchining ilk romanida ijtimoiy muammolar emas, alohida odamning kechilmay sizimlarini tasvirlash etakchilik qiladi" [5, 488-bet].

Qayd qilinganidek, romanda inson sezimlari, kechinmalari talqini ustunlik qiladi. Bazi yozuvchilar o'z asarlarida voqeani samimiy, beozorgina qilib tasvirlaydi. Bazilari esa umuman boshqacha yo'lni tanlaydi. Bunda qandaydir o'amginlik, qahramonlar tiynatiga singdirilib yuborilibgina qolmay, asarning barcha hujayralari – komponentlarga o'z tasirini o'tkazadi. L.Bo'rixonda ikki holning o'zgacha shakli shamoyili – sintezlashgan qirrasini ko'rishimiz mumkin. Bazan kinoyaviy–piching xarakter tabiatini ochishga qaratilgan bo'lsa, bazi hollarda odamzot botiniy iztiroblariga, millat tabiatiga xos qadriyatlar xususida qayg'urayotganligini yuz ifodalaridagi tushkunlikka ishora qilish asosida talqin etilganligini kuzatish mumkin.

Asarda tasvirlangan obrazlarni talqin etishda yozuvchi o'ziga xos uslubini namoyon qiladi. Roman qahramoni Lolaxon – go'zalligi va muloyimligini hisobga olmaganda, oddiygina ayol. Uning jismi va ruhida ham o'zgalardagi singari xohish-istaklar bor. Shahar qizi bo'lishiga qaramasdan uning qalbidagi beg'uborlik, soflikka aslo gard yuqmagan, shahar muhiti uni o'ziga yengib ololmagan. Shunga muvofiq uning qalbidagi istaklar ham pok va beg'araz. Lekin shaxsiy hayotning atay ijtimoiy maqomga ega qilinganligi, insonlar orasidagi munosabatlarning sun'iy va mantiqqa muvofiq emasligi, beva qolgan yoshgina ayolning tabiiy ehtiyojlari hisobga olinmay, barchaning ko'z o'ngida sevgi va sadoqat timsoliga aylantirilgani uni halokatga olib boradi. Bevosita u o'z muhitining qurboniga aylanadi. Ko'ngli hayot ishq va yashash zavqiga, jismi yoshiga munosib lazzatlarga tashna bo'lgan go'zal bir juvon nodonlarcha qaror topdirilgan soxta qadriyatlarining qurboniga aylanishi asarda ta'sirli ko'rsatilgan. Lolaxon maqtanchoq va soxta obro'ga o'ch Ashur tomonidan o'ldirilmaganda ham, u baribir bunday yolg'on hayotda, munofiq qiyofada uzoq yashay olmasligi, fojia o'zgacha bir tarzda ro'y berishi romanda sezilib turadi. Asarda odamlar tomonidan ma'budaga aylantirilgan yosh ayol qismati mungli bir qo'shiqday kuylanadi. Lola ko'ngli ochiq, qalbi pok, o'zi bolalarcha beg'ubor qiz. Uning qalbidagi mana shu poklik, hech bir shumlikni bilmasligi o'z sevgisiga, yoriga nisbatan ulkan sadoqat bilan yor bo'lishiga sazovor qiladi.

"Ey, qavmi qarindosh! – debdi Ashur bo'g'iq va tiroqli tobushda. – Men qasam ichdim! Ertami-kechmi akajonimning qonini to'kkanlar shu xanjardan o'lim topadi. Akajonimning ruhi pokini xo'rlaganlar ham mendan omonlik kutmasin! Yigitlik qasamim shu!" [4, 184-bet]. Shon-shuhratga o'chlik, o'zgalarning maqatovidan "ishib ketishga" moyilligi Ashurning ko'zlarini shu darajada pardalab qo'yadiki, kurakda turmaydigan "guppi"ligi sababli har qadamda, har qanday holatda o'zini ko'rsatishga harakat qiladi. Akasining azasida ko'rsatgan bu tomoshasi ham shunday

nayranglaridan biri. “Nega menga xabar bermadilaringiz?! – deya bo’g’ilib, bo’g’ilib qichqiribdi Ashur” [4, 185-bet]. Muallif Ashur qiyofasida hamma narsani namoyish uchun qiladigan, tomosha ko’rsatib yashagan, ko’rsatgan tomoshasi o’ziga ham, o’zgarlar taqdiriga ham tuzalmas jarohatlar yetkazgan, ammo ayni shu namoyishkorligi, soxtaligi bois odamlar ehtiromiga sazovor bo’lgan baxtsiz va shaxsiy qiyofadan mahrum yigit timsoli mahorat bilan qalamga olingan. Romanning boshqa bir o’rnida yengil shon-shuhratga o’ch Ashur o’zidan kuchli raqibi bilan olishib yiqilganda, o’zini akasini o’ylab hushidan ketgan qilib ko’rsatgandagi holati hikoyachi tomonidan shunday bayon qilinadi: “Men beixtiyor do’stlarimdan ko’zimni olib qochdim. Qaroqlarim qop-qora osmonga qadaldi. Nazarimda, qop-qora osmonda g’uj-g’uj yulduzlar, bir siltovda tizzalab qolgan Ashurning ko’zlaridan sachrab ketgan uchqunlar ayyorona jimirlardi” (225-bet). Ashurning adib tomonidan turli rakuslarda tasvirlangan xo’jako’rsin va soxtalikka asoslangan hayot tarzi, g’alati shaxsiyati uning qanchalar “sodda va samimiy” ekanini ortiqcha izohlarsiz ham ko’rsatib turadi. Eng dahshatlisi uning hovliqmaligi, o’zini ko’rsatishga o’chligi, bachkanaligi o’z yangasi Lolaxonni nohaq o’limga olib borishiga sabab bo’ladi. Achinarlisi shundaki, hayotda bunday kimsalarning “doim oshig’i olcha bo’larkanda” deb o’ylaysan kishi. Ero, Ashurning qo’llari yangasi qoniga bo’yalgan bo’lsa-da, bu voqea uning obro’yiga zarracha ta’sir ko’rsatmaydi, aksincha uni yuksakalarga ko’taradi.

Asarda mehnatkash, to’g’ri, lekin bir qadar dovdur, laqma Safarmurod chavandoz timsoli ham o’ta jonli va ta’sirchan ishlangan. Safarmurodda otga bo’lgan mehr juda chiroyli talqin qilingan. Ammo o’z davriga hamohang fikrlaydi: “O’shanda usta Zoyiur chavondozi soddaligiga yengilgina kulib debdi: “Ay, Sapar, armani usta chatoq, temirlarga jon kirgizadi. U seni aldag’an! Bo’yab-bejab sotg’an, samom dele mashina ado bo’lg’an...” Usta Zovurning gapi gap edi. U hech kimni aldamaydi. Shuning uchun ham Safarmurod aka “G’irko’k – Moskvich”ni ortiq boshqa ustaga ko’rsatmay, ruhi tushib, o’z holiga tashlab qo’ygan, joyi chiqsa dardisarni shu holicha pullab yuborishni mo’ljallagan edi. Mashina boshqarishni o’rganishda bo’yinsasiga bajonu dil ustozlik qilgan Safarmurod aka kiyinchalik uyimizda “Jiguli”ni “yuvish” ziyofati qizib turga payt ichkilikdan qizarga ko’zlari negadir g’ussa bilan suzilib menga hamishagi ohu zorini takrorladi. “Otangga shopirlikni o’rgatdim, nu... nu, sen bola otdan qolma, chavondozi bil, otangga ayt, yaxshi bir yo’rg’a olib bersin... Huv, G’ulomxon eshonning bolasi Hujjatulloxon ikkovinga chavondozi bil, otangga ayt, yaxshi bir yo’rg’a olib bersin... Huv, G’ulomxon eshonning bolasi Hujjatulloxon ikkovinga chavondozi bil, otangga ayt, yaxshi bir yo’rg’a olib bersin... Huv, G’ulomxon eshonning bolasi Hujjatulloxon ikkovinga chavondozi bil, otangga ayt, yaxshi bir yo’rg’a olib bersin...” Men ham hamishagidek “xo’p, xo’p”lab qutildim” [4, 142-143-betlar]. Bu tasvirlarda chavondozi bolalik davrlariga xos jihatlarni kuzatamiz. U tog’ odami bo’lib, birinchilar qatorida cho’lga kelgan, shu yer muhitiga moslashgan shaxsdir. Unda otga bo’lgan mehr hech qachon yo’qolgan emas. Chavondozi hamisha jo’ralar kulgisiga sabab bo’laqdigan hovliqmaligi, doim chuv tushib yurishi, ayni vaqtda o’zini do’stlari: Ergash mirob bilan Chinor direktordan aslo kam sanamasligi, vaqti kelsa, ularga dashnom berishga urinishi romanda bu personajning tiyatini namoyon etuvchi xususiyat sifatida ishonarli tasvir etilgan. Romanda otsiz chavondozi o’ziga keraksiz qamchisini muzeyga berishni istamasligi, bergandan keyin qaytarib olishi kabi o’rinlarda Safarmurod chavandoz tabiati yaxshi ochilgan. Chunki o’zbek erkagi bosh kiyim, qurol-aslaha va ot abzalni biron-birga bermaydi. Asarning kinoyaviy yo’nalishi xuddi taqdirning piching singari oqsoq direktorning Chinor deb atalishi, og’zidan ot tushmaydigan, nomiga “chavandoz” so’zi qo’shib aytiladigan Safarmurodda otning yo’qligi, xo’jalikda iymoni butun yolg’izgina shaxs Abdulla badqovoqning hech kimga yoqmasligi, uyatsiz va soxtakor Ashurning qishloq or-nomusi hisoblanishi, uch yigitning o’rtasida yurgan Shabnamning sadoqat haqidagi ahdini el-yurt oldida tantanali ravishda Lolaxonga aytishi kabi lavhalar ta’sirida to’la namoyon bo’ladi.

Chinor aka garchi o’zi cho’loq bo’lsa-da, bir xo’jalikni yashnatib yuborgan shaxs timsolidir. U ishning ko’zini biladigan, hayotda omadi chopgan shaxsdir. Bu omad qishloqning eng old qizi-Maysaraning manaman degan yigitlarni qo’yib, Chinorni tanlashida bir ko’rinsa, qishloqqa direktorlikka tayinlanishida bir ko’rinadi. Chinorning bir kuni yiqilib, oyog’i chalishib ketishini kutadiganlarning orzulari chipakka chiqib, uning hurmati oshgandan oshib ketdi.

Muallif asarda ustomon va dog’uli soxtakor kimsalarning el-yurt “vijdoni”ga aylanishi bilan Abdulla badqovoq singari kishilarning qadr topmasligi, ko’pchilik uning shaxsini baholay oladigan darajaga yetmaganini bir mahzunlik bilan aks ettiradi. Chunki Abdulla aka kishi ko’rsin uchun hech narsa qilmaydi. Har bir aytgan gapi va bosgan qadami ichki mantiqqa, fikriy asosga tayangan

ADABIYOTSHUNOSLIK

bo'ladi. Ishning ko'zini bilgani uchun to'q yashaydi. To'q yashagani, birovga qaram bo'lmagani uchun o'zini hurmat qiladi. O'zini hurmat qilgan va hammaga o'xshamaganlarni esa o'sha "hamma" yaxshi ko'rmaydi. Adib jigarining o'limi marosimiga kirib kelayotgan Abdulla ruhiyatini ustalik bilan ifodalagan. Asarda yozuvchining odam ruhiyatini yaxshi bilishi ko'rinib turadi. U kim qaysi jihati bilan ko'rsatilsa, tabiati to'la namoyon bo'lishini aniq tasavvur qiladi. Abdulla aka singari ko'ngil va aql kishisi aza va to'y kabi bir qolipga tushirilgan marosimlarda qiynaladi. Chunki u qolipga tusholmaydi, biror harakatni xo'jako'rsin uchun qilolmaydi. Bunday odamlarning ichidagi tashqarisida bo'ladi, ya'ni mug'ombirlikni, jilla qursa, olg'irlikni bilishmaydi. Bir umr o'zgalar uchun yashab yurgan kishilarga bunday ishlarni qilish oson, bu qolipdan tashqari subutli kishilarning holati esa tushunarsiz. Abdulla badqovoq odam birovlar nazari uchun yashay olmasligi va yashamasligi kerakligini biladi. Ammo o'zbek turmush tarzi odamdan hech qachon qanot-u quyruq bo'lmaydigan kimsalar ko'zi uchun yashashni talab qiladi.

Romanda Abdullaning o'g'li halok bo'lgan akasi Fayzulla bilan ko'rishuv sahnasi bilgichlik bilan yozilgan. Abdullaning o'kirib yig'lamaganida, o'kirolmaganida birovga o'xshamagan shaxsning o'kirigi yashirib yotibdi; "U nihoyat ko'rday paypaslab ichkari kirdi va dovdaray-dovdiray chorpoqa tomon, qorasatan to'ni ustidan qo'sh belbog', bir necha yaqinlari qurshovida tayoq suyangancha turgan og'asi yoqqa yurindi. Fayzulla aka ertadan beri bo'zlay-bo'zlay charchab qolganidanmi, yo ukasining urf-odatlarini buzganidan xafa bo'ldimi, ishqilib shilq-shilq burun tortganicha, istamaygina o'zini jigarining bag'riga berdi. Abdulla badqovoq esa uni ming yillarda ko'rmay sog'ingan singari mahkam quchoqlab oldi, shundagina go'yo qattiq siquvdan jon joyi jazillaganday Fayzulla aka chinakamiga bo'g'iq tovushda ho'ngrab yubordi. Abdulla badqovoq akasini bag'riga battar bosgan ko'yi shaftoli danagiday bo'rtib chiqqan kekirdagini g'ilt-g'ilt o'ynoqlatib, qachondan beri naq bo'g'zigacha bostirib kelgan, tevarakdagilar qachondan beri otilib chiqishini ilhaq-ilhaq kutib yotgan o'kirikni, negadir zo'r bazo'r iziga qaytarardi" [4,142-bet]. Bir qaraganda, unchalik katta yuk tashimaydigan o'xshab ko'ringan bu tasvir salmoqli estetik vazifani bajargan. U Abdulla shaxsiyatiga xos jihatlarni ko'rsatish bilan birga, atrofdagi tomoshatalablarning tabiatini ham namoyon qilgan.

Asarda katta-kichik har bir obraz o'ziga yarasha badiiy yuk tashiydi. O'roqning onasi Xosiyat opaning turli vaziyatlardagi holati tasviri kishida kuchli qiziqish uyg'otadi. Qishloqning soddagina ayoli farzandlarining baxti kulgan kunlari gulday ochilib, yasharib ketganligi, shaharcha shevada gapira boshlagani, o'g'li halok bo'lgan kunlarda esidan ayrilganday bo'lib qolish jihatlari juda ishonarli va ta'sirli ochib berilgan. O'roqning otasi hech bir jihati bilan o'zgalardan ajralib turmaydigan, imkoni qadar ko'zga tashlanmaslikka intiladigan Fayzulla aka ruhiyatidagi botiniy va zohiriy evrilishlar asarda juda tabiiy qilib ko'rsatilgan. Ruhiiy xotirjamlik, o'ziga ishonch kishini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkinligi romanda o'zining go'zal aksini topgan. Bo'shashibgina yuradigan Fayzulla akaning ma'shuqa orttiradigan darajada o'zgarishi romanda kinoya-yu pichinglar bilan juda ta'sirli aks ettirilgan.

"Xosiyat xolaning o'limidan so'ng roppa-rosa bir yil o'tkach, Fayzulla aka yana uylanish payiga tushib qolibdi. Aytishlaricha, otalarining qaroridan norizo qizlari uni o'rta olib, marhuma onalarining ruhi poki, muqaddas xotirasi haqida gap boshlab, ayuhannos ko'tara boshlagan mahal – Fayzulla aka qizlariga shunday bir o'qrayib qarbdiki, o'sha zahotiy oq mehribon farzandlar qariyabop ayol izlashga tushibdilar. Men o'sha kunlar Fayzulla aka ham allanechuk yosharib, jo'shqin va masrur qiyofaga kirib qolganini payqadim..." [4, 304-305-betlar].

Odatda, jabr tortgan kishilar tasvirida mahzun ifodalardan ko'p foydalaniladi. Chunki har bir odam tortayotgan jabrning o'ziyoq boshqalarni hamdardga aylantiradi. Luqmon Bo'rixon ilk bor shu an'anani buzishga jur'at etdi. U ulkan baxtsizlik komiga tushgan xosiyat opani ham, Fayzullz akani ham tabiatiga mos tarzda ko'rsatish yo'lidan boradi. Taqdirning kutilmagan siyloviga ham, nogoh sinoviga ham duch kelgan bu kishilarning Lolaxon holatini tushunadigan darajada sezgir, uning tabiiy istaklariga mayl bildira oladigan darajada insofli emasliklari asarda boricha ko'rsatiladi. Fayzulla akaning odamni tushunmasligi va tanimasligi romanda bir-ikki lavhada mahorat bilan chiziladi. Fayzulla akaning odam tanimasligi Lolaxonning "Qorindor, sergo'sht qosh-u qabog'i orasida ko'milib ketgan ko'zlari tuksiz, oppoq, siyrak sochli xum kallasiga omonatgina do'ppi ilgan, oltmish yoshlar atrofidagi" tog'asiga munosabatida yaqqol ko'rinadi: "O'shanda Fayzulla aka, eng yaqin, eng sirdosh birodariga hasrat qilganday negadir qudasining quchog'iga ho'ngrab otilgandi. U

hatto o'z tug'ishgan inisi Abdulla badqovoqning- da bag'rida bunchalar jonsaraklik bilan tashlanmagandi". Ana shu parcha bilvosita tasvir usulining eng samarali ko'rinishlaridandir. Asarning bosh konsepsiyasi romandan olingan quyidagi parchada ham aks etgan deyish mumkin.

Oldinlari alohida bir odamning insoniyatga munosib bo'lishi kerakligiga urg'u berilar va hamisha insoniyat yuksaklikda tasavvur etilardi. Bu romanda insoniyat, ya'ni ko'pchilik bitta insonni tushunishga urinishi lozimligi ta'kidlangan. Bu hol odatiy yondashuv tarzini buzib, qadriyatlar tizimiga o'zgarishlar kiritgan. Odam va uning qadri haqida bir og'iz ham gapirilmagan quyidagi lavhada ko'pchilikning ruhiyati va mohiyati yaxshi aks etgan deyish mumkin: "Bazm dasturxoniga qarab bo'lmasdi. Ivirsib yotgan bo'sh shishalar, idish-tovoqlar, togan-to'kilgan ovqat qoldiqlari-yu meva-cheva po'choqlariko'ngillarni behuzur qilardi. Kimdir papiros qoldig'ini chayqala-chayqala hozirgina yemak yegan idishi ichiga bosib o'chirar, tag'in allakim nosvoy yuqi tekkan lab-lujini engashganchadasturxonga ishqalab artar, huxx, tomoshalar boshida o'yinchi qizga "Bir oylik nasibasi"ni qistirib yuborgan o'sha yo'g'on nusxa stol tagiga engashgancha qusib yotardi". Bu shafqatsiz tasvirda ko'pchilikning holati, uning ma'naviy tubanlashuvi qay darajaga yetishi mumkinligi ko'rsatilgan.

An'anaviy romanchilikdan tamomila farqlangan adibning ushbu asari, bir qarashda o'tmish hodisalarini, sobiq mafkura zug'umining inson irodasini bukib qo'yib, oqibatda ularning "qorin g'amidan" boshqasini o'ylamaydigan, o'z tashvishlari girdobida qolayotgan inson qismatini ham, bir necha personajlar xatti-harakatlari, kechinmalari, odamlar bilan bo'lgan muloqatlari asosida keng epik ko'lamda qalamga oladi va asosli talqinlarni yuzaga chiqarish imkoniga ega bo'ladi: "Qish adog'larida qizining lablaridan to'kilgan mujdalardan so'ng tупpa-tuzuk tetiklashgan bu motamsaro ayol ko'k kiyimining etaklariga o'ralashgan ko'yi, goh u, goh bu qo'shnisinikiga dovdird-sovdird o'tib qolar, ko'ringanni gapga tutib o'g'lining tirikligiyu allaqaylarda vaqtincha bekinib yurgani haqida soatlab ezmalanar, ishqilib, telbanamo xatti-harakatlariyu gap-so'zlari bilan mishmishlar uchun etarli yoqilg'i tayyorlab berar edi. "Absurd... hayot, – debdi agranom-shoir, Xosiyat xolaning gap-so'zlari qulog'iga chalingach. – G'irt absurd, xom xayol... Nima davlatimiz toza ovsarmi, unaqa bo'sh tobutni u yoq - bu yoqqa tashib yurgali?! Qanchalar xarajat, qanchalar ishchi kuchi kerak bunga?! Yo'q, g'irt bemani... Yuksak vatanparvarlik kuychisi, motamsaro ayolning aljirashlari chin chiqib, hali boshlamagan dostoni chala qolishidan cho'chiganmi, yo hukumat shani toptalganidan ozorlanganmi, har qalay, og'ir-ezgin xayollarga cho'mibdi. Cho'ma-cho'ma, go'yo davlat shaniga tomgan dog'ni yuvib tashlashga oshiqqanday, uch-to'rt piyola limmo-lim aroqni ketma-ket sipqorib yuboribdi" [4, 165-166-betlar].

Lavhada Ulash agronom-shoirning bolalarcha soddaligini, bola qalbligini, har vaqt mushohada yuritganida o'zini vatanga beminnat xizmati tegayotganidan mag'rurlanib, to'lqinlanib, shijoat bilan ijod qilishi "o'ziga xos qobiliyati" borligini kinoya-piching ohangida tasvirlaydi. Uning ham qalbida yovuzlik, vahshiylik mavjud emas, faqat inson istiroblarini, qalb kechinmalarini, farzandini o'limini his qila olmayotgan ona faryodini anglab etmasligini ham alohida qayd etish lozim.

XULOSA

L.Bo'rixonning badiiy talqinlarida uslubiy-janriy komponentlar uyg'unligi kinoyaviy tarzda namoyon bo'ladi. Bunday deyishimizga sabab, avvalgi hikoya va qissalarida ham shu yo'l orqali odamzod tabiatining kuchli va ojiz tomonlarini tasvirlashga bo'lgan moyillik sezilar edi. "Jaziramadagi odamlar" romaidagi obrazlar olamining o'ziga xos tamoyillari, ijodkorning juda teran talqinlarini, uning badiiy idrokini namoyon qilganligini ham alohida qayd etish lozim. Adib murakab hayotning turfa xil qirralarini, murakkab xarakterlarda, ularning botiniy olamidagi ziddiyatlarda namoyon etish jarayonini haqqoniy yuzaga chiqarganligini alohida qayd etish mumkin. Insonning kechinmalaridagi istiroblarning sabablari juda yaxshi tasvirlar asosida yoritilganligiga diqqat qilindi. Shu bilan birga, adib qahramonlarining muhiti juda teran talqin etilganligini davr, muhit, inson nuqtaiy nazardan, o'rganish mumkinligini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Расулов А. Бадийлик - безавол янгилик. – Toshkent, "Шарқ", 2007. 56-бет.
- 2.Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. Istanbul, KESIT, 2019.–140 bet.
- 3.Камю Албер. Ёзувчи бўлиш–шараф // Жаҳон адабиёти, 2000. №11. 168-бет.
- 4.Bo'rixon Luqmon. Jaziramadagi odamlar. Roman. – Toshkent, "Hilol media" nashriyoti, 2018. – 344 bet.

ADABIYOTSHUNOSLIK

5.Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Adabiy o'ylar. –Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006. – 548 bet.

6.Nasirov A. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanida obraz yaratish. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD) 4(2), 200-201, 2020.

7.Nasirov A.N. The history of literary translation from uzbek into English. Academic research in educational sciences 2(6), 1011-1022, 2021.